

## ULGURJI ISTE'MOLCHILAR UCHUN ELEKTR TA'MINOTI SHARTNOMASI № 02

2022-yil 07-yanvar

Urgut shahri

**Samarqand H.E.T.K** bundan buyon matnda "Ta'minotchi" deb ataluvchi nomidan, Ustav (Nizom) asosida faoliyat yurituvchi rahbar **G'.Mamatqulov** bir tomondan, **Urgut tuman MTB**, bundan buyon matnda "Iste'molchi" deb ataluvchi nomidan, Ustav (Nizom) asosida faoliyat yurituvchi rahbar **J.Zoitov** ikkinchi tomondan ushbu shartnomani, quyidagi maqsadlarda tuzdilar,

### 1. SHARTNOMA MAZMUNI

Ushbu elektr ta'minoti shartnomasiga (keyingi o'rinlarda - **Shartnoma** deb ataladi) muvofiq, "Ta'minotchi korxonasi" "Iste'molchi"ga elektr energiyasini ulangan tarmoq orqali yetkazib berish va "Iste'molchi" iste'mol qilingan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini oladi.

### II. YETKAZIB BERILGAN ELEKTR ENERGIYANI HISOBGA OLISH

2.1. Elektr energiya iste'molining yillik shartnomaviy hajmi: Aktiv **30000** kVt.s. reaktiv \_\_\_ kVar.s.

2.2. Yetkazib beriladigan energiyaning shartnoma tuzilgan kunidagi umumiy narxi № 450 so'mni, tarif bo'yicha **69 061 950** (oltmish to'qqiz million oltmish bir ming to'qqiz yuz ellik) so'mni tashkil etadi.

2.3. "Iste'molchi" tomonidan Yetkazib beriladigan elektr energiyasining oylar kesimidagi yillik hajmi ushbu shartnomaga 1-ilovada keltirilgan.

2.4. "Iste'molchi" tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasining haq to'lanishi lozim bo'lgan hajmi ushbu shartnomaga 2-ilovada nazarda tutilgan hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida, hisobga olish priborlari ulangan tok va kuchlanish transformatorlarining transformatsiya koeffitsientlari inobatga olingan holda aniqlanadi.

2.5. Iste'molchilarning (maishiy istemolchilar va tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) elektr energiyasini hisobga olish uskunalari, shuningdek elektr energiyasini hisobga olishning boshqa vositalari iste'molchining mablag'lari hisobiga sotib olinadi, davlat qiyoslovidan o'tkaziladi, hududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan bepul o'rnatiladi, plombalanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

### III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1 Elektr energiyasi uchun hisob-kitoblar bir stavkali, tabaqalashtirilgan, oshib boruvchi koeffitsient qo'llaniladigan yoki aholiga tenglashtirilgan tariflar asosida amalga oshiriladi.

3.2. Ulangan quvvati 750 kVA va undan ortiq bo'lgan "Iste'molchi" (byudjet tashkilotlari, suv ta'minoti tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilari uyushmalarining nasos stansiyalari, shuningdek Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan nasos stansiyalari bundan mustasno) elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha amalga oshiradi.



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

**№ 02**

**1. Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2. Loyihaning nomi:** Xizmat ko'rsatish shartnomasi.

1.1. Ta'minotchi o'ziga tegishli bo'lgan xizmatni ushbu spesifikatsiyaga asosan Iste'molchiga o'z vaqtida sifatli qilib berish, Iste'molchi esa xizmatni qabul qilish va ushbu shartnomada belgilangan muddatlarda to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Shartnomaning umumiy summasi 69 061 950 (oltmish to'qqiz million oltmish bir ming to'qqiz yuz ellik) so'mni tashkil etadi.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Urgut tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022-yil 18-yanvar kuni **07.01.2022-yil № 01** bo'yicha WS01662500-son hujjat raqami bilan ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" 1998-yil-29 avgustdagi 670-I-son qonuni hamda amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Urgut tuman yuridik  
xizmat ko'rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti



O.I.Yoqubov

2022-yil 19-yanvar